



KARBALO VOQEASIGA BAG‘ISHLANGAN BADIY ASARLAR HAQIDA

S.Soyipov

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti.

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada payg‘ambarlar hamda Muhammad payg‘ambarning nabiralari Imom Hasan va Imom Husaynlar taqdiri mavzusida yaratilgan badiiy asarlarning yaratilish tarixi, kompozitsiyasi, janri, voqealar tafsiloti ilmiy-qiyosiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: voqea, adabiyot, tarix, doston, qissa, tafsilot, vosita, asar, manba, qolyozma, misra, manba.

АННОТАЦИЯ В данной статье научно и сравнительно анализируются история, композиция, жанр и детали событий, созданных на тему судеб пророков и внуков пророка Мухаммада Имама Хасана и Имама Хусейна.

Ключевые слова: событие, литература, история, сага, деталь, медиум, произведение, рукопись, эссе, источник.

ANNOTATION This article scientifically and comparatively analyzes the history, composition, genre and details of the events created on the fate of the prophets and grandsons of the Prophet Muhammad Imam Hassan and Imam Hussein.

Keywords: event, literature, history, saga, detail, medium, work, manuscript, essay, source.

Kirish. Umumturkiy hamda o‘zbek adabiyotida pag‘ambarlar hamda Imom Hasan va Imom Husaynlar taqdiri, xususan, Karbalo voqeasi yoritilgan bir qator qissa va dostonlar mavjud.

Shunday ekan, Iroqning Karbalo dashtida Payg‘ambar Muhammad alayhissalomning nabiralari Imom Husayn hamda uning oila a‘zolari va ko‘plab sahobalar, ya’ni yetmish ikki kishining shahid bo‘lishi Islom tarixidagi eng mudhish hodisalardan biri hisoblanadi. Bu voqea boshqa qardosh xalqlar adabiyoti kabi o‘zbek adabiyotida ham o‘z badiiy ifodasini topgan. Jumladan, Uvaysiy, Bibi Hojar, Xolis Toshkandiy, Sobir Syqaliy kabi shoir va shoirlar ushbu mavzuda qissa va dostonlar yaratganlar. Ma’lumki, bunday badiiy asarlar inqilob davrigacha (1917-yilgacha bo‘lgan davirda) xalq orasida keng tarqalgan va ular ommaviy tarzda qiziqib o‘qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shuningdek, Karbalo voqeasi tafsiloti bilan yoritilgan tarixiy-badiiy asarlardan biri Alisher Navoiyning safdoshlaridan biri bo‘lgan Husayn Voiz Koshifiyning (1440-1505) fors tilida yozilgan “Ravzat ush-shuhado” – (Shahidlar bog‘i)

deb nomlangan asaridir. Bu asar mazkur mavzuga bag‘ishlangan eng qimmatli asarlardan biri sanalib, u muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu mavzuda (Forsiy va turkiy tilda) qalam tebratgan va asar yozgan mualliflarning aksariyati Husayn Voiz Koshifiyning mazkur asariga bevosita yoki bilvosita murojaat qilganlar. Darhaqiqat, Odam alayhissalomdan to Muhammad alayhissalomga qadar o‘tgan payg‘ambarlarga bag‘ishlangan qissalar, shuningdek, choryorlar, sahobalarga doir voqealar Voiz Koshifiyning “Ravzat ush-shuhado” asaridan o‘rin olgan. Toshkent shahrida joylashgan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qolyomalar fondida “Ravzat ush-shuhado” asarining bir necha forsiy qo‘lyozmasi va turkiy tarjimalari saqlanmoqda [1;1730-II, 1737, 1758-I, 6768, 10821; 11549-II, 12203, 12668-I. Тошбосмалар: 588, 6029 (1898 йили), 4638 (1906 йили)]. Mazkur asar 1324-hijriy (1906-milodiy) yilda o‘zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda “Ravzat ush-shuhadoi turkiy” nomi bilan nashr ettirilgan.

Karbaloda tug‘ilgan ulug‘ Ozarbayjon shoirilaridan biri bo‘lmish Muhammad Fuzuliy (1498-1556) ham birinchilardan bo‘lib turkiy tilda bu mavzuga bag‘ishlangan asar yaratdi. Koshifiy asaridan ta’sirlangan Fuzuliy kitobining nomini “Hadiqat us-suado” (Baxtlilar bog‘i), - deb nomlagan. Uni muallif Koshifiyning “Ravzat ush-shuhado” asari kabi o‘n bir qismga bo‘lgan va payg‘ambarlar tarixidan misollar keltirgan. Shuningdek, Imom Husaynning fojeyali hayoti bayonnini ham voqealar silsilasiga singdirib yuborgan. Fuzuliy o‘z asarini nasrda yozgan bo‘lsa-da, asardagi ba’zi voqealarga she’riy misralar orqali munosabat bildirgan.

Tahlil va natijalar. “Hadiqat us-suado” asarining ham ko‘plab qo‘lyozma nuxalari Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidada saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor [1; 1662, 3619, 5034, 7716, 8481, 8535, 8926, 9156, 12132, 12532]. Ushbu asar keyinchalik Turkiyada hozirgi turk alifbosida, Ozarbayjonda kirill alifbosida va Eronda arab alifbosida nashr etilgan.

Shu bilan birgalikda bunday mavzuga oid asarlar yaratishga o‘zbek shoirasi Uvaysiy (1779-1845) ham qo‘l urgan va u Imom Husaynning shahid bo‘lishiga bag‘ishlangan “Karbalonoma”, yoki “Jangnomayi Imom Husayn” asarini yozgan [1;11218, 669, 9599, 15600, 18257, 607, 659, 19885].

Shuningdek, XVIII asrda yashab ijod etgan o‘zbek shoiri Xolis Toshkandiy tomonidann yozilgan “Qissai Imom Hasan va Imom Husayn”[1;12244, 8295]., “Qiyomatnoma” va “Musibatnoma” nomli qissalari ham xalq orasida mashhurdir. Bibi Hojar (XIX-asr) degan shoira ham bu mavzuda “Qissayi Imom Husayn” nomli doston yaratgan [1;2463-III]. Bundan tashqari qozoq shoiri Jusipbek Shayx ul-islom o‘g‘lining Qozon shahrida bosilgan “Qissayi voqeayi Karbalo” kitobi ham mazkur mavzuga oid mo‘tabar manbalardan biri sanaladi. O‘zbek tilida 1900-yilda nashr etilgan “Musibatnomayi turkiy” va 1329-hijriy (1911-milodiy) yilning muharram oyida yozib tugatilgan “Qissayi Imom Husayn” nomli nasriy asarlar ham shu mavzuga bag‘shlangan asarlar sirasiga kiradi. Kuzatishlarimiz natijasida bizga shu narsa ma’lum bo‘ldiki, turkiy adabiyotda “Karbalonoma”lar juda ko‘p yozilgan.

O‘zbek adabiyotida bir necha shoir va muttafakkirlar o‘z asarlarida Imom Hasan va Imom Husayn qissalarini yoritgan bo‘lsalar-da, biroq Sobir Sayqaliyning “Ravzat ush-shuhado” nomli asari shu mavzudagi eng salmoqli manbalardan biri sanaladi.

Manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda uning to‘liq nomi Muhammad Sobir Sayqaliy Hisoriydir. Sobir Sayqaliy haqidagi ilk ma’lumotlar Mavlaviy Ho‘qandiy tazkirasida qayd qilingan. Xo‘jasaid Abdumalikxon binni Saidamir Muzaffarxon tuzgan “Majmu‘ai ashori turkiy” nomli to‘plamda ham Sayqaliy asarlaridar namunalar, shuningdek, shoir ijodi haqida ba’zi ma’lumotlar zikr etilgan [2; 435], [3: 95].

Sobir Sayqaliy ijodiy merosi ilviy jihatdan o‘rganilishi 1960-yillardan boshlandi. Bu davrgacha shoir asarlaridan namunalar asosan “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi” kitobidan o‘rin olib kelgangan [4:45].

Sobir Sayqaliy Hisoriy XVIII asrning ikkinchi yarmida hozirgi Tojigistonning Hisor degan joyida tug‘ilib, yashab, ijod etgan talantli qissanavis, turkiy shoirlardan biridir. U Hisoriy taxallusini tug‘ilgan joyi nomidan olgan.

Sayqaliyning hayoti haqida yetarlicha ma’lumotlar yo‘q [5:5]. Sayqaliy umri davomida lirik she‘rlar yozgan bo‘lsa-da, o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojiga asosan doston va qissalari bilan hissa qo‘shgan o‘z zamonasining buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblanadi.

Sermahsul ijodkor Sayqaliy asarlari ichida, shubhasiz, “Ravzat ush- shuhado” (Shahidlar bog‘i) asari alohida e’tiborga molik. Bu kitob “Imom Hasan va Imom Husayn qissalari” nomi bilan ham yuritilgan. Mazkur qissa hazaji musammani maqsur (mafoilun-mafoilun-faulun) vaznida yozilgan adabiy-tarixiy asardir.

Sayqaliy qissalarining ma’no-mohiyatini chuqurroq anglash uchun Karbalodagi fojiali voqealarning tarixiga ham alohida nazar tashlash lozim.

Hijriy oltmishinchi yil rajab oyining o‘n beshida o‘zini xalifa deb e’lon qilgan sahoba – Muoviya ibni Abu Sufiyon vafot etadi. Otasining o‘rniga Yazid ibni Muoviyya o‘zini xalifa deb e’lon qiladi. Soxta xalifa Yazid Imom Husayn uni xalifa sifatida tan olishini talab qilib, Madinaga chopar yuboradi, lekin u Yazidning chopari Madinaga yetib bormasdan oldinroq shaharni tark etadi.

Shuningdek, Janubiy Iroqdagi Ko‘fa shahrining aholisi hazrati Ali bilan hazrati Muoviya raziyallohu anhu orasida bo‘lgan kelishmovchiliklarda hazrati Aliga tarafdorlik qilganlar. Vaqti kelib, mazkur Ko‘falik tarafdorlar Imom Husaynning Ko‘faga kelishini, ular unga bo‘y sunib, dushmandan himoya qilishlarini xat orqali bildiradilar. Bu taklifga binoan Imom Husayn ahli-ayoli, qarindoshlari va tarafdorlari bilan Kufa sari yo‘l oladi, lekin ularga Ko‘fa shahriga yetib borish nasib etmaydi, balki Ko‘faliklar unga bergan va’dalarini bajarmaydilar va Imom Husaynni dushmandan himoya qilmaylar. Natijada hijriy oltmish birinchi yilning boshi, muharram oyida Ko‘faning zolim hokimi Ibni Ziyod qo‘shin yuborib, Husayn va uning tarafdorlarini Karbalo dashtida qirib tashlashlarini amr qiladi. Ayovsiz to‘qnashuvda Imom Husayn o‘z ahli-ayoli, qarindosh va tarafdorlari bilan birga o‘sha joyda shahid bo‘ladilar [6: 404-408].

Sayqaliy Karbalo voqeasini o‘zining “ Ravzat ush-shuhado” asarida chuqurroq idrok qilgan holda tafsiloti bilan bayon qilishga harakat qiladi va bu borada Voiz Koshifiy va Muhammad Fuzuliy asarlaridan unumli istifoda etadi. Jumladan, shoir asar qahramonlari tilidan qissaga g‘azal va muxammaslar kiritib, voqealarni yanada ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Shunday ekan, Markaziy Osiyo davlatlari kutubxonalarining qo‘lyozmalar fondlarida Sayqaliyning “Ravzat ush-shuhado” asari qo‘lyozma nusxalarining ko‘pligi, uning Toshkent va Qozonda ko‘plab nusxada nashr qilinganligi [1; 220,221-II, 222-I, 1553, 4820, 5603, 6445, 6569, 7326, 7981, 7995, 8002, 9569-I, 13088. 172, 73, 9178 , 174], [7; 1386;3130,3377-I,4274], [8;29, PM 187 (1897), PM 512, PΦ 289 (1901), PM 1330] ushbu asarning o‘z davrida xalq orasida mashhur bo‘lganidan dalolat beradi.

Sayqaliyning mazkur asari birinchi va ikkinchi kitobdan tashkil topgan. So‘zga boy va kompozitsiya jihatidan juda puxta bo‘lgan bu dostondagi birinchi kitobning kirish qismi 148 misra she’rdan iborat bo‘lib, u an’anaviy hamd (34 misra), na’t (40 misra), choryorlar madhi (28 misra), munojot (46 misra) kabilardan iborat. Shuningdek, unda payg‘ambarlar qissasi, xususan, hazrati Muhammad payg‘ambar sallallohu alayhi vassallamning imomlar bilan bog‘liq munosabatlari, ularga g‘amxo‘rliliklari, Imom Hasan va Imom Husayn taqdirlaridan bashorat berilishi, choryorlar hikoyalari, Xadichayi Kubro va Fotimayi Zahro onalar bilan bog‘liq voqealar, Hazrati Ali va Muoviya o‘rtalaridagi ziddiyat, Hazrati Alining shahid bo‘lishlari bayoni va hokazolar qalamga olinadi. Har bir voqea tasvirida imomlar qismatiga alohida ishora berib boriladi.

Ikkinchi kitobning kirish qismi ham hamd bilan boshlanadi va bu qismda Imom Hasanning shahid bo‘lishi va Imom Husaynning fitnaga uchrashi, Karbalo dashtida ahli bayt bilan yetmish ikki kishining fojiali qatl etilishi kabi shafqatsiz zulm-u sitamlar bayon etilib, asarning birinchi qismi bilan ikkinchi qismi voqealari bir-biri bilan uzviy bog‘lanadi.

Shoir Sayqaliy o‘z asari myqaddimasida bu dostonni buyuk muhabbat, ayni paytda, afsus-nadomat bilan yozganligini qayd etadi va Karbalo voqeyasining Islom tarixida eng katta fojia va ulkan bir fitna bo‘lganligini ta’kidlaydi. U asarning boshidan oxirigacha Allohga yuksak ehtirom ko‘rsatadi, xususan, Karbaloda shahid bolganlarga shafolat tilaydi.

Sayqaliy o‘zining mazkur asarida boshqa shoirlar kabi Imom Husaynni “Jahon sultonlarining afzali” sifatida ko‘rsatib o‘tadi. U zoti sharifning taqdiriga taassuf bildirish bilan bir qatorda, hazrati Imomga fitna qilgan va ahli baytni tig‘dan o‘tkazgan zolimlarni qattiq qoralaydi. Fojiyaning boshida turgan Abdulloh Ziyodni haqoratomuz so‘zlar bilan tilga oladi.

Sayqaliy mushriklar bilan musulmonlar, yoki xavorijlar bilan Hazrati Ali tarafdorlarini dostonlarga xos bo‘lgan ifodalar, mubolag‘ali manzaralar, jonlantirilgan lavhalar orqali mahorat bilan tasvirlaydi va kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Jangdagi harakat va holatlarni ifodalashda o‘ziga xos tashbihlar qo‘llaydi va zabardast shoir va yirik mutassavvif olim So‘fi Allohpor kabi so‘z o‘yinlari hamda favqulodda o‘xshatishlar qiladi, xususan, tajnislarni mahorat bilan qo‘llab, “Dunyoparastlardan yiroq yurishni va ularga ishonib bo‘lmaslikni bot-bot uqtirar ekan, shunday yozadi:

Yaqin bil, ahli dunyo bo‘l magay yor,
Desa yorim agar, yor o‘lma zinhor.
Abu zar birla qilma ahdu paymon,
Buzar oxir bu zarr yoki uzar jon.
Tuzungni tuzg‘a ber, tuz aylagay kor,
Ki zar bersang buzuqg‘a berma zinhor [9;10].

Shuningdek, shoir istiora va ma‘nodosh so‘zlarni ketma-ket qo‘llash orqali o‘zining bu soha bo‘yicha san‘atkorligini muvaffaqiyatli namoyon etadi. Asarning deyarli barcha baytlari hikmatlarga boyligi va uning quymaligi, shuningdek, xalq tiliga yaqin, sodda va tushunarli bo‘lganligi sababli unda tasvirlangan barcha voqealar kitobxonning yodida qoladi. Bunga misol tariqasida asardan quyidagi namunani keltiramiz:

O‘zingdin o‘zgaga qil mehribonlig‘,
Qo‘lungdin kelsa hech qilma yomonlig‘.
Ki g‘am bahrini hech poyoni bo‘lmas,
Kishi to o‘lmayin g‘amdin qutulmas.
Xudovandim aziz etgan qulini,
Guliston aylag‘ay yurgan yo‘lini.
Hama ketgay, jahonda qolmagay hech,
Amonat jon chiqar erta va yo kech [9;348].

Sayqaliyning o‘z e‘tiqodida mustahkam bo‘lgani, Islom dini ko‘rsatmalariga to‘liq rioya qilgani, tariqat yo‘lida sobitqadam bo‘lgani dostonidagi har bir voqeaga bo‘lgan munosabatidan, mazkur asarining quyidagi ayrim baytlari mazmun-ma‘nosidan sezilib turadi. Shuning uchun ham u o‘z asarlarida Islom qonun-qoidalariga amal qilishda mustahkam bo‘lishlikni doimo ta‘kidlab o‘tadi:

Muhammad Mustafoning payravi bo‘l,
Boshing ketsa agarchi yo‘lida o‘l [9;11].

Sobir Sayqaliyning “Ravzat ush-shuhado” asari o‘ziga xos xususiyat va fazilatlariga haqida ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Darhaqiqat, biz mazkur dostonni o‘qir ekanmiz, asar muallifi bir qancha xalq dostonlari va yozma adabiyot tajribalarini o‘zlashtirganligini ko‘ramiz. Shu sababli ham uning “Ravzat ush-shuhado” dostonida tarixiy haqiqat bilan bir qatorda, shoir mushohadasi, xalqona tasvir hamda milliy ruh qorishib, jozibali bir kompozitsiyani tashkil etgan. Hattoki, shoir ba‘zi o‘rinlarda kurash, to‘y-hasham, ta‘ziya va marosimlarni o‘zbekona urf-odat va an‘analar doirasida tasvirlaydi. Shu sababli ham biz dostonida yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, fikr va tuyg‘u izchilligini, tabiiy qofiya va quyma satrlar mavjudligini, shuningdek, unda shakl bilan mazmunning mutanosibligini ko‘ramiz. Shuning sababli ham bu qissa shubhasiz, mumtoz adabiyotimizning mazkur mavzuga bag‘ishlangan nodir asarlari qatoridan munosib o‘rin egallaydi.

Ma‘lumki, “Karbonoma”lar asosan xalq ijodiga xos mubolag‘a, tashbihlar, rivoyatlardan tashkil topgandir. Shu bois ham bu turkumdagi asarlar har qancha xalqona va

o‘ziga xos tarzda ta’sirli yozilgan bo‘lsa-da, ulardan tarixiy-ilmiy manba sifatida foydalanishda ehtiyot bo‘lish lozim, chunki ular diniy-badiiy asar hisoblanadi va har bir shoir ushbu turkumdagi asar yozar ekan, unga o‘z dunyoqarashi va mushohadakorligi darajasida yondashadi. Zero, mualliflarning maqsadi ham sof tarixiy-ilmiy bir asar yaratish bo‘lmaydi, balki badiiy qissa yoki dostonlar yozib, odamlarda Allohga nisbatan sevgi-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish, ayni paytda insonlarni yaxshi va yomon ishlardan ibrat olishga da’vat etish bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида “Равзат уш-шуҳадо” asari қуйидаги инвентар рақамлар остида сақланмоқда. Қўлёзмалар: 1730-II; 1737; 1758-I; 6768; 10821; 11549-II; 12203; 12668-I; 1662; 3619; 5034; 7716; 8481; 8535; 8926; 9156; 12132; 12532; 2463-III; 12244; 220; 221-II; 222-I; 1553; 4820; 5603; 6445; 6569; 7326; 7981; 7995; 8002; 9569-I; 13088. Тошбосмалар: 588, 6029 (1898 йили); 4638 (1906 йили) ; 8295; 669, 9599, 15600, 18257; 172 (Тошкент, 1904); 73, 9178; 1314; 673. 174, 18340 (Қозон, 1905); 4674, 9451, 9452, 3882, 13883 (Қозон, 1906).

2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент. Ўзбек Миллий энциклопедияси нашриёти. 2004. –Б., 435.,

3. Қўқон Адабиёт музейи қўлёзмалар фонди. Инв. 95.

4. Ўзбек адабиёти хрестоматияси. – Тошкент. 1945. 2-том. –Б., 45.

5. Сайқалий. Баҳром ва Гиландом. – Тошкент. 1960.- Б., 5.

6. Али Назарий Мунфарид. “Қиссаи Карбало”. Қум. 1379 х.ш.,-Б., 404-408.

7. Туркманбоши номли Миллий Қўлёзмалар институти, Ашхабат (ТМҚИ): Қўлёзмалар: 1386, 3130, 3377-I, 4274.

8. Қозоғистон Республикаси Фанлар Академияси кутубхонаси (ҚРФА): Микрофилмлар: РФ 29, РМ 187 (1897); РМ 512, РФ 289 (1901); РМ 1330 (Қозон, 1906).

9. Нашрга тайёрловчи Сайфиддин Сайфуллох, Довуд Хунзикер, Равзат уш-шуҳадо. - Тошкент. Мовароуннахр, -Б., 10, 348 , 11.